



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

2020-yil yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
646,4 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **16,1 %**

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi
– **48,2 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **35,7 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatida jami **646,4** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **103,9 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **104,2** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **16,1 %** ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **130,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **48,2 %** ni yoki **311,7** mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **35,7 %** yoki **230,5** mlrd. so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 104,2 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati-130,9 %
- ulushi -16,1 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 311,7 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati-100,1 %
- ulushi -48,2 %



Norasmiy sektor

- hajmi - 230,5 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 100,1 %
- ulushi - 35,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, mlrd. so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **72,7 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **2,5 %** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **11,8 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **15,5 %** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi.




Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil yanvar-fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **16,5 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5** punktga ko'paydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **34,5 %** ni (0,6 punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **49,0 %** ni (**2,1** punktga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **34,9 %** ni (**20,6** punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **65,1 %** ni (**20,6** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **0,3 %** ni (**0,3** punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **99,7 %** ni (**0,3** punktga kamayish) tashkil etdi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar- fevral oylarida)

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	646,4	103,9	100,0
Nurafshon sh.	24,4	109,0	3,8
Olmaliq sh.	24,1	99,2	3,7
Angren sh.	23,6	100,5	3,6
Bekobod sh.	24,4	100,0	3,8
Ohangaron sh.	19,8	104,4	3,1
Chirchiq sh.	27,6	100,2	4,3
Yangiyo'l sh.	9,2	101,7	1,4
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	18,8	97,2	2,9
Ohangaron	17,9	101,0	2,8
Bekobod	19,7	101,1	3,0
Bo'stonliq	33,7	99,8	5,2
Bo'ka	13,1	97,9	2,0
Quyichirchiq	14,2	102,4	2,2
Zangiota	89,8	112,1	13,9
Yuqori Chirchiq	43,8	104,4	6,8
Qibray	59,9	111,5	9,3
Parkent	36,3	102,6	5,6
Piskent	15,0	103,5	2,3
O'rta Chirchiq	35,4	99,6	5,5
Chinoz	17,6	97,0	2,7
Yangiyo'l	17,3	100,7	2,7
Toshkent	60,8	105,3	9,4

2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **311,7** mlrd. soʻmni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **48,2** %) tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **100,1** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **35,7** % ni yoki **230,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **100,1**% ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **104,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **16,1** % ni tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **130,9** % ni tashkil etdi.

Yanvar-fevral oylarida subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da




Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-fevral oylarida **89,8** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **112,1** % ga bajarildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Quyri Chirchiq tumani (14,2 mlrd. so'm yoki 102,4 %), Bo'ka tumani (13,1 mlrd. so'm yoki 97,9 %) va Yangiyo'l shahri (9,1 mlrd. so'm yoki 101,7 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;



2020-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 13,9 % ni, Toshkent tumanida 9,4 % ni va Qibray tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,3 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Quyi Chirchiq tumani bu ko`rsatkich eng past 2,2 % ni tashkil etdi. Bo'ka tumani 2,0 % ni va Yangiyo'l shahrida 1,4 % dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev
Aloqa telefoni: (71) 230-86-71